

O‘ZBEKISTONDA ISLOM MOLIVASINI JORIY ETISH ZARURIYATI HAMDA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Kaxarova Zura Apsalamovna

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistratura tinglovchisi

Zuhra.kaxarova.91@mail.ru

+9989 95 0962629

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda Islom moliyasini joriy etish zaruriyati, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, xalqaro moliya bozorlarida mustahkam raqobatbardoshlikni oshirish va jamiyatda adolatli iqtisodiy aloqalarni o‘rnatish kabi masalalar ochib berilgan. Islom moliyasining rivojlantirilishi, yurtimizdagi moliyaviy tizimning yanada zamonaviylashishiga, shuningdek, xalqaro sarmoyalarni jalb qilishga yordam berishi mumkin.

O‘zbekistonda Islom moliyasini joriy etish zaruriyati, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, xalqaro moliya bozorlarida mustahkam raqobatbardoshlikni oshirish va jamiyatda adolatli iqtisodiy aloqalarni o‘rnatishdan iborat. Islom moliyasining rivojlantirilishi, yurtimizdagi moliyaviy tizimning yanada zamonaviylashishiga, shuningdek, xalqaro sarmoyalarni jalb qilishga yordam berishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Islom moliyasi, xalqaro moliya, moliyaviy xizmatlar, riskni taqsimlash, diversifikatsiya, xalqaro sarmoya, moliyaviy tizim.

I.KIRISH

Islom moliya tarmog‘i bugungi kunda jahonda jadal rivojlanib borayotgan va innovatsion moliyalashtirish mexanizmini o‘zida jamlagan sohalaridan biri hisoblanadi. Aholisining asosiy qismi musulmonlardan iborat bo‘lgan davlatlar uchun ushbu tarmoqni rivojlantirish, juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun, musulmon davlatlaridagi faoliyati islomiy moliyalashtirishga asoslangan mavjud banklar, investitsiya fondlari va kompaniyalar mablag‘larini O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash maqsadida jalb etishi maqsadga muvofiq. Buning uchun albatta milliy bank tizimiga yangicha yondashuv bilan nazar solish, ya’ni an’anaviy moliyalashtirish mexanizmlari joriy etish masalasi tadbiiq etilishi kerak.

Mamlakatimizda bozor munosabatlarining takomillashuvi va iqtisodiy raqobatning chuqurlashuvi hamda mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy integratsiya jarayonlarining tezlashuvi tijorat banklari resurslarini barqaror manbalar hisobidan shakllanishi va ularni samarali maqsadlarga joylashtirishni talab etmoqda. Bularning barchasi tijorat banklari resurslarini boshqarishni nazariy va amaliy jihatdan takomillashtirish zarurligini anglatadi. O‘zbekistonda investitsiyalarni jalb etish, muqobil moliyalashtirish muassasalari va vositalarni joriy etishga e’tibor qaratilmoqda. Respublikada «..ilg‘or xalqaro tajriba va texnologiyalarni jalb qilish hisobiga bank xizmatlari ko‘lamini kengaytirish va sifatini oshirish» vazifasi belgilangan.

Ushbu vazifa ijrosini ta’minlashda muqobil moliya muassasalarini tashkil etish orqali chet ellik investorlar hamda mamlakat aholisining moliyaviy munosabatlarga jalb etilmagan qismi mablag‘larini iqtisodiyotga safarbar etish, islom moliyasi

muassasalarini mamlakat moliya tizimiga integratsiya qilish bo'yicha taklif va tavsiyalarni asoslash, islom tamoyillariga muvofiq ishlovchi moliyaviy bitimlarni amalda qo'llash va an'anaviy banklarda «islom darcha»larini tashkil etish eng dolzarb masalalardan biridir. Islom banking o'sishi dunyoda musulmonlar sonining ko'payishi bilan uzviy bog'liqdir.

II. METODOLOGIYA

Islom banki, islomiy moliya (arabcha: مصرفية إسلامية), yoki Shariatga muvofiq moliya – bu shariat (Islom qonunlari) va uni islom iqtisodini rivojlantirish orqali amalda qo'llashga mos keladigan bank yoki moliyalashtirish faoliyati. Islom bank ishi faoliyatini boshlanishini aniq davri o'tgan asrni 60-yillari boshlariga to'g'ri keladi.

Birinchi Islom jamg'arma banki Misr davlatida 1963-yili tashkil topgan, lekin uning faoliyati uzoq cho'zilmagan. 1970-yillarga kelib, Islom moliyaviy institutlarini yaratish bo'yicha amaliy ishlarni amalga oshirish boshlanib ketdi. 1974-yilda Islom davlatlari tashkiloti shariat me'yorlari asosida iqtisodiy va sotsial dasturlarni moliyalashtirish uchun davlatlaro Islom rivojlantirish Bankini tuzish bo'yicha qaror qabul qildilar. 1975-yilda Dubai Islamic Commercial Bank tashkil etildi. Islom banklarini shakllanish bosqichida asosiy shaxslardan biri bo'lgan, Saudiya Arabistoni qirol oilasidan shahzoda Muhammad Fasal, hozirda Finance/DarAI guruhining boshlig'i, shuningdek, shayx Salex Kamel, hozirda Airbaraka guruhining boshlig'i 1977 yili Misr va Sudanda Faisal nomi bilan ikkita bank guruhini ochishdi. 1979 yili Baxreynda birinchi marotaba Islom banki tashkil etildi. Islom banklarini yuzaga kelishiga psixologik asos bo'lgan, Yaqin Sharq keng aholisi o'rtasida an'anaviy islomga ixlosmandlarning kuchayishi oqibatida, «Islomning tug'ilish jarayoni»-uning eng yuqori cho'qqisi Eronda imom Xumayni tomonidan amalga oshirilgan revolyutsiya oqibatida sodir bo'ldi. Islom banklarini real rivojlanishiga asos bo'lgan yana bir holat, 1973 yilda sodir bo'lgan neft inqirozi hisoblanadi, buning oqibatida Yaqin Sharqda neftning narxi juda keskin oshib ketdi va natijada neft dollarning oqimi ufurib islom davlatlariga kirib keldi.

Musulmonlar sonidan mijoz mablag'lari oqimining keskin ko'payishi Islom banklari passivlarini oshirib yubordi, lekin Islom kapital bozorini boshlang'ich davrdagi rivojlanish holati ularni to'liq safarbar qilishning iloji yoq edi. Islom Arab tilidan “ishonch” deb tarjima qilingan. Bu shart shartnomaning ishonchli shartlarga asoslanishini ta'minlaydi: moliyaviy vositachi o'z majburiyatlari to'g'ri bajarilgan bo'lsa, zarar ko'rgan taqdirda hech qanday javobgarlikka ega emas. An'anaviy moliya muassasalaridan farqli o'laroq Islom moliyasi real mulk va moddiy jihozlardan iborat noliqvid aktivlarga asoslanadi.

An'anaviy bank tizimida amana tushunchasi joriy hisoblar yoki talab hisoblariga mos keladi, banklarida 80-yillarning bosh maqsadi passiv operatsiyalarda tajriba to'plash, moliyalashtirish va investitsiya usullarini standartlashtirishdan iborat edi. Islom moliyasining eng muhim xususiyatlaridan biri bu aktivlar asosida ta'minlangan moliyalashtirish hisoblanadi. Moliyalashtirishning an'anaviy kapitalistik

yo‘nalishda banklar va moliya muassasalari faqatgina pul va monetar qog‘ozlar bilan ishlashadi, shuning uchun ko‘pgina mamlakatlarda mahsulotlar savdosi va mol-mulk ashyolari bilan ishlash taqiqlanadi. Islom dini esa ba’zi holatlarni hisobga olmaganda, pulni savdoning asosiy obyekti sifatida tan olmaydi. Chunki pul bu yerda faqat ayirboshlash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bir xil valyutadagi pullarni ayirboshlash yoki foiz undirish orqali olingan foyda esa ribo hisoblanadi.

Islom moliyasining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – voqelikdagi aktivlarga asoslangan moliyalashtirish faoliyati hisoblanadi. Qozog‘iston olim Ye.Baydauletning fikriga ko‘ra, “an’anaviy moliyalashtirishda banklar va moliyaviy muassasalar faqat pullar va monetar majburiyatlar bilan ish olib boradilar, ya’ni ularni sotib oladilar va sotadilar.

Pullar o‘zicha hech qanday qiymatga ega emas, u faqat almashinuv vositasi, tovar yoki xizmatning puldagi ekvivalentidir. Qandaydir qiymatga ega biron narsa pulga sotilsa yoki turli valyutalar bir-biriga almashganda, foyda paydo bo‘ladi. Pullar (bir valyutada) yoki ularning o‘rni bosuvchi qog‘ozlar bilan kredit-qarz amaliyotlari natijasida olingan foyda o‘zida pullik qo‘shimcha qiymatni ifodalaydi, demak, u man etilgan hisoblanadi. Oddiy moliyaviy muassasalardan farqli ravishda muqobil (islomiy) moliyalashtirish hamisha voqelikdagi (real) aktivlarga asoslanadi, oldi-sotdi jarayonida voqelikdagi qo‘shimcha qiymat yuzaga keladi. Bundan islom moliyasida pul o‘ziga xos vazifani bajarishi ma’lum bo‘ladi. Bu haqda avvalgi bandda ham so‘z yuritgan edik. Islom moliyasining an’anaviy tizimdan farq qiladigan eng asosiy asosiy jihatlaridan yana biri – islom moliya muassasasida Shariat kengashi (mutaxassislari) ning mavjudligi bo‘lib, kengash mutaxassislari islom moliyasi muassasasi amalga oshiradigan har bir amaliyot va faoliyatning shariat qoidalariga muvofiqligini nazorat qiladilar.

Rossiyalik mutaxassis R.Bekkin fikriga ko‘ra, shariat nazorati tarkibiga bog‘liq holda ularni quyidagi shakllarga ajratish mumkin:

— Shariat nazoratining ikki darajali tizimi. Birinchi (quyi) tizimda alohida islom moliyasi muassasalari shariat kengashlari joylashgan; ikkinchi (yuqori) darajada esa – qoidaga ko‘ra Markaziy bankdagi yuqori shariat kengashlari joylashadi.

— Bir darajali jamoaviy shariat nazorati tizimi. Islom moliyasi muassasalarida faoliyat yurituvchi shariat kengashlari quyidagilar:

— Bir darajali xususiy shariat kengashi nazorati. Shariat nazorati vazifasi alohida shaxslar – shariat maslahatchilari tomonidan amalga oshiriladi.

— Outsorsing shartlari asosida shariat nazorati tizimi. Shariat nazorati tizimidagi xizmatlar alohida ulamolar yoki kengashlar tomonidan taqdim etiladi.

— Yirik moliya-sanoat guruhining markazlashgan yagona shariat kengashi tizimi.

Hozirgi kunda islomga muvofiq keluvchi moliyaviy andoza islomning axloqiy qarashlariga asoslangan bir nechta qoidalarga jamlangan, u munosabat sub’ektlari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning predmeti, xususiyati va natijasi haqqoniy bo‘lishini ifodalaydi.

Islom moliyasining tayanch qoidalarini quyidagilar hisoblanadi:

— bitimlarda ribo (sudxoʻrlik), gʻarar (noaniqlik), maysir (chayqovchilik faoliyati) ning mavjud boʻlmasligi, ulardan holi boʻlishi;

— biznes yuritishning axloqqa asoslangani, chunki, maʼlum bir cheklovlarni joriy qiluvchi diniy asosning mavjudligi munosabatlarning yuqori darajadagi talablar boʻyicha oʻrnatilganini bildiradi;

— voqelikdagi aktivlarga asosidagi faoliyat, moliyaviy munosabatlar asosida moddiy qimmatliklarning mavjud boʻlishi taqozo etiladi;

— zakot (xayriya, ehson). Iqtisodiy munosabat ishtirokchilari jamiyat oldidagi ijtimoiy majburiyatlari boʻyicha maʼsul ekanliklari.

Islom moliya tizimining eng asosiy ribo, gʻarar va maysir kabi tushunchalari talqinidan mantiqan kelib chiqilsa, qolgan bandlar qoidalariga rioya etish shartlari kelib chiqadi, shu sababli uning asosiy qoidalarini quyidagi shaklda shunday jamlasak boʻladi:

Ribo atamasi qarzdorning olgan asosiy miqdorga qoʻshib toʻlanishi lozim boʻlgan foiz stavkasiga, “puldan olinadigan pullik daromad”ga dahldordir. Bu yerda islom moliyasi talabi boʻyicha foydadan ulush toʻlab berish emas, balki tashkilot yoki tadbirkor tarafidan olingan foyda yoki zararni oʻzaro taqsimlanmaydigan, oldindan oʻrnatib qoʻyilgan toʻlovga muqobil fikr bayon qilinyamoqda.

Islom riboni ikki toifaga ajratadi: nasiya ribosi (riba an-nasia) hamda fazl ribosi (riba al-fazl).

— nasiya ribosi pullarni pulga ayirboshlashdagi riboda namoyon boʻladi, bu yerda ayirboshlash kechiktirilgan yoki muddati uzaytirilgan boʻladi va bu hozirgi kundagi moliyaviy amaliyotlarda keng qoʻllanayotgan qoʻshimcha toʻlov uchun sabab hisoblanadi.

— fazl ribosi nozik amaliyot hisoblanadi va qoʻlma-qoʻl ayirboshlashda yoki barter ayirboshlashuvida namoyon boʻladi, unda mahsulotlar oʻzining jinsidagi mahsulotga teng-teng miqdorda yoki pulga ayirboshlanishi shartligi talab qilinadi, ayirboshlashning man etilgan shakllarida tovarlar sifatida tafovutlar boʻlishi va bu nohaq orttirishga olib kelishi mumkin.

Mazkur tushunchalarning zamonaviy vaziyatlarga tadbiqʻi, bank foizining ahloq jihatdan noodil va iqtisodiy tafakkur boʻyicha yangilash ekani sifatida tasniflash bilan talqin etiladi.

Moliyaviy bitimlardagi taqiqlangan yana bir jihat – gʻarar hisoblanadi. Gʻararni bitimning muhim unsurlaridan masalan, mahsulot yetkazib berish aniq bahosini, sotuvchining mahsulotni amalda yetkazib berish qobiliyatini bilmaslik va boshqalardan bexabarlik sifatida tushunish mumkin.

Tomonlarning hech biri bitim predmetiga ega boʻlmaydigan kelishuv bunga misol boʻla oladi. Aynan gʻorarning man etilishi tomonlarni maʼlumotlar bexabarligidan, asossiz toʻlovlar mavjud shartnomalardan chetlanishga majbur qiladi. Boshqa har qanday chayqovona amaliyot ham gʻorar sifatida tushuniladi.

Islom moliyasining zamonaviy tizimi quyidagi tarkiblarni o‘zi ichiga oladi:

- bank toifasiga tegishli moliya - kredit muassasalari;
- investitsiyaviy (sukuk chiqaruvchi qimmatli qog‘oz muassasasi) va xayriya fondlari;
- sug‘urta (takoful) kompaniyalari;
- nobank moliya (shu jumladan mikromoliya) muassasalari.

III.TADQIQOT NATIJALARI

1-Jadval

Islom banklari aktivlari¹

Bank nomi	Joylashgan Davlati	Fitch Rating	Moody’s Rating	S&P Rating	Umumiy aktivlari (mln AQSh dollari)	Hisobot sanasi
Abu Dhabi Islamic Bank	BAA	A+	A2	NR	52,502	12/31/23
Qatar Islamic Bank	Qatar	A	A1	NR	51,952	12/31/23
Boubyan Bank	Quvayt	A	A2	A	27,356	12/31/23
Al Rajhi Bank	Saudiya Arabistoni	A-	A1	A-	215,493	12/31/23
Kuwait Finance House	Quvayt	A	A2	NR	123,710	12/31/23
Dukhan Bank	Qatar	A	A2	NR	31,425	12/31/23
Qatar International Islamic Bank	Qatar	A	A2	NR	16,930	12/31/23
Dubai Islamic Bank	BAA	A	A3	NR	85,580	12/31/23
Bank AlJazira	Saudiya Arabistoni	A-	Baa1	NR	34,547	12/31/23
Warba Bank	Quvayt	A	Baa2	NR	15,738	12/31/23

1-jadval ma’lumotiga ko‘ra 2023-yil Islom banklari aktivlari o‘sib bormoqda hamda reytinglari ham yuqori natijalarni ko‘rsatmoqda. Saudiya Arabistoni banki aktivlar bo‘yicha yetakchilardan bo‘lib kelmoqda.

Bizning fikrimizcha, O‘zbekistonda islom moliyasini joriy etish uchun dualistik andoza aynan mos keladi. Ushbu andozada an’anaviy va islom moliyasi muassasalari faoliyati uchun munosib huquqiy asos va raqobat muhiti yaratiladi, mijozlarda ikki tizim o‘rtasida tanlov imkoniyati paydo bo‘ladi, ularning islom talabi bo‘yicha ehtiyoji qondiriladi, yangi moliyaviy mahsulotlar yaratiladi, mamlakatning jahon hamjamiyati oldidagi nufuzi ortadi va chet ellik investorlar uchun yangi bozorni shakllanishiga turtki beradi. Ushbu andoza joriy qilinsa, mamlakatda islom moliyasi

¹ Global Finance Report -2023y ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

infratuzilmasining tashkil etilishi uning samaradorligi asosiy sharti bo‘ladi. Dualistik andoza an'anaviy va monistik andoza bilan solishtirib ko‘rilganda, samarali hisoblanishi bugungi kunda buni joriy etgan mamlakatlar tajribasidan ma'lum bo‘lgan. Uning amalga kiritilishi islom moliyasi va unga raqobatchi moliya muassasalarining faoliyatiga teng. Boshqa tomondan, islom moliyasi muassasalarini tashkil etilishi iqtisodiy muammolarning yechimi sifatida ko‘rilmoqda, mazkur mavzuga Oliy Majlis, Senat, Markaziy bank, bank hamjamiyati tomonidan qiziqish bildirilmoqda.

O‘zbekistonda aholining katta qismi musulmon ekanligi ham islom moliyasini tashkil etishning yana bir omilidir. Bank hamjamiyatining qiziqishi ham o‘ta ahamiyatli hisoblanadi, bugungi kunda mamlakatimizdagi 9 ta bankda “islom darcha”lari tashkil etish bo‘yicha ITBning muassasalari bilan muzokaralar olib borilmoqda. Baribir asosiy to‘siq - me‘yoriy-huquqiy asosning yo‘qligi –bartaraf etilmayapti. Bizning fikrimizcha, islom moliyasining eng yirik tarkibi – islom banklari tashkil etishning kechiktirilishi, Markaziy bank tomonidan yuritilayotgan ehtiyotkorona va izchil siyosat bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Katta qiziqish va tashabbuslar mavjud bo‘lsada, qonunchilikdagi o‘zgarishlarsiz islom moliyasi, xususan, bankchiligi rivojlanmaydi O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksida mamlakat fuqarolarning umum e‘tirof qilingan teng huquqliligi, mulki daxlsiz ekanligi, shartnoma tuzishda erkinligi kabi tamoyillar belgilab qo‘yilgan.

Mazkur mustahkam asoslar islom moliyasining asosiy faoliyati tamoyillariga muvofiq keladi. O‘zbekistonda Islomiy moliyalashtirishga asosan loyihalarni amalga oshirish 2004 yildan boshlangan va bu O‘zbekistonning 2003 yil sentyabrda Islom taraqqiyot bankining a‘zoliciga qo‘shilishi bilan bog‘liq. 2004 yilda Islom taraqqiyot banki (ITB) tomonidan energetika va sog‘liqni saqlash sohasida loyihalarni moliyalashtirish uchun «ijara» va «murobaha» shartnomalaridan foydalanilgan. Biroq ITB O‘zbekistonda o‘z faoliyatini mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlagan va bu a‘zo bo‘lmagan davlatlarning musulmon jamoalarini qo‘llab-quvvatlash dasturi orqali grant loyihalarni amalga oshirishda namoyon bo‘lgan. O‘zbekiston Respublikasida islomiy moliyalashtirishga doir alohida qonunchilik mavjud emas. Islom taraqqiyot banki va Xususiy sektorni rivojlantirish bo‘yicha islom korporatsiyasi tomonidan mamlakatimizda moliyalashtirilayotgan loyihalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 27 avgustdagi 371-sonli qarori va 2004 yil 21 dekabrda qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Ularga ko‘ra O‘zbekiston hukumati Islom Taraqqiyot banki (ITB) va Xususiy sektorni rivojlantirish bo‘yicha islom korporatsiyasi (XSRIK)ni tashkil etish to‘g‘risidagi kelishuv moddalarini qabul qilgan. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Islomiy moliyaviy xizmatlar Kengashiga a‘zo bo‘ldi. Kengash faoliyati islomiy moliya institutlarini tartibga solish va nazorat qilish bo‘yicha xalqaro standartlarni ishlab chiqish, samarali korporativ boshqaruv mexanizmlari va risk-menejmenti tizimini joriy qilish, shuningdek, mazkur sohada kadrlar salohiyatini oshirish, tadqiqotlar olib borish hamda ushbu masalalarda Kengashga a‘zo tashkilotlarga ko‘maklashishga qaratilgan. Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy

moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizom O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2024-yil 26-iyulda №3536 son bilan ro'yxatdan o'tkazildi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda islom moliyasini rivojlanmayotganligiga asosiy sabablaridan biri qonunchilik bazasining mustahkamlanmaganligi hamda ushbu sohada mutaxassis kadrlarning yetishmovchiligi bo'lsada, yurtimizda ushbu islom moliyasini rivojlantirishga sekin, bosqichma-bosqich o'tib kelinmoqda. O'zbekistonda Islom moliyasiga muvofiq moliyalashtirish taqdim etuvchi muassasalar soni 10 taga yetdi. “O'zbekiston — 2030” strategiyasida kamida uchta tijorat bankida islomiy moliyalashtirish mezonlari va tartiblarini joriy etish hamda islomiy moliyalashtirishning qonunchilik bazasini shakllantirish vazifasi belgilangan. “Prezidentning 2022-yil avgusti va o'tgan yili bo'lib o'tgan tadbirkorlar bilan uchrashuvlarida shu masala islom moliyasi masalasi ko'tarilgan edi. O'shandan beri bu borada turli vazirliklardan iborat ishchi guruh ish olib bormoqda. Bir narsani tushunish kerak: bu juda yangi va murakkab soha bo'lib, u ko'plab qonun hujjatlariga, jumladan, garov to'g'risidagi, sudlar to'g'risidagi, banklar to'g'risidagi va Markaziy bank to'g'risidagi qonunlarga o'zgartirishlar kiritishni talab qiladi.

Unga ko'ra, “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida”gi qonunga islomiy moliya xizmatlarini ko'rsatishga ruxsat beruvchi o'zgartirishlar kiritilgan. Islamic Finance Development report ma'lumotiga ko'ra, 01.01.2024 yil holatiga, Islom moliya aktivalari umumiy hajmi 4.9 trillion AQSh dollarini, o'sish sur'ati 11%, islom moliya institutlari soni 1.981, kamida bir turdagi islom moliyasiga oid qonun-qoidaga ega mamlakatlar soni 57, FinTech Sandboxga ega mamlakatlar soni-72, markzlashgan shariat qo'mitasiga ega mamlakatlar soni -23, Islom banklari faoliyatining oshkoraligi (ochiqligi) indeksining (o'rtacha) ko'rsatkichi -69%, shariat qo'mitalarida faoliyat qo'mitalarida faoliyat olib boruvchi ulamolar soni 1,512, ESG (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv ma'suliyati qoidalari)ga muvofiq ravishda chiqarilgan va hozirda muomilada bo'lgan suuklarning umumiy qiymati 35.9 mlrd. AQSh dollari, ESG talablariga muvofiq bo'lgan islom jamg'armalarining umumiy qiymati 8.0 mlrd. AQSh dollari, sohaning barqarorligini baholash tizimiga ega mamlakatlar soni 50, islom banklari tomonidan tayyorlangan o'rtacha barqarorlik hisobot indeksi 48%, umumiy ijtimoiy ma'suliyat mablag'lari, ya'ni islom moliyasi tizimi doirasida jamiyat uchun sarflangan umumiy mablag'lar 1.3 mlrd AQSh dollari, islom moliyasi bo'yicha jonli shaklda o'tkazilgan tadbirlar-531, islom moliyasi bo'yicha onlayn tarzda o'tkazilgan tadbirlar-387, islom moliyasi bo'yicha yangiliklar -10,534, islom moliyasi bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy ishlar va ilmiy tadqiqotlar soni 5,162, islom moliyasi bo'yicha jurnallar soni 347 tani tashkil qilgan. Islom moliyasi muassasalarining joriy etilishi va shakllanishida unga bo'lgan talab asosiy omillardan biridir.

IV.XULOSA

Islom moliyasi andozasi moliyaviy tizimning alohida shakli sifatida namoyon bo'ldi, islomga muvofiq keluvchi huquqiy ahkomlar zamonaviy islom moliyasi tizimining asosi bo'lib xizmat qildi. Uning faoliyat doirasi musulmonlar o'lkalaridan tashqarida ham qaror topdi va samarali moliyaviy yechimlarni taqdim etib kelyapti. Zamonaviy moliya tizimida ham samarali qo'llanayotgan muzoraba, murobaha, mushoraka, sukuk va ijara kabi bitimlar ribo, g'orar va maysir mavjud unsurlardan chetda bo'lishni taqozo etadi, islom moliya tizimi real aktivlar asosida ish yuritadi, foyda va zararni taqsimlash, xatarni zimmasiga olishni rag'batlantiradi va chayqovona faoliyatni man etadi. Islom moliyasi tarmog'ining barqaror o'sish sur'atlarini qayd etishi, taqdim etilayotgan moliyaviy vositalarning o'ziga xosligi o'tkazilayotgan ilmiy tadqiqotlarning muttasil ortib borishini talab qilmoqda. Islom moliyasi andozasini tadbig'i bo'yicha turlicha talqinlar mavjudligi ayon bo'lib qoldi. Islom moliyasi muassasalarining jamiyat hayotida tutgan mavqei, ular bajaradigan vazifalar ko'lamini e'tiborga olgan holda, mamlakatimizda ularni joriy qilishning o'ziga xos yondashuvlari shakllantirildi.

Islom moliyasi vositalari an'anaviy moliya vositalari kabi funktsiyalarni bajarishi borasida mulohazalar bildirildi. Islom moliya muassasalari, xususan islom banklarining moliya bozoridagi mablag'larni jamg'arish va safarbar qilish singari vazifalarni bajara olishi bilan bog'liq jihatlarni ilmiy asosda bilan bayon etildi, an'anaviy moliya muassasalaridan farqli tomonlari guruhlashtirildi. Jahondagi 100 ta yirik islom banklarining 18.7% aktivlari Saudiya Arabistoniga to'g'ri keladi hamda Al - Rajhi banki dunyodagi eng yirik islom banki hisoblanadi. Ushbu bank aktivlar salmog'ini 2019 yildagi 103.7 mlrd.dollardan 2020 yilda 126.6 mlrd.dollarga yetkazdi, yillik 22.1% o'sish ko'rsatkichini qayd etdi. Islom banki sektori hozirgi kunda qirolik bank sektorining 50%dan ortig'i tashkil etadi, islom banklari aktivlari 551.1 mlrd.AQSh dollarini tashkil etmoqda. Mamlakatimiz ham islom moliyasi muassasalarini joriy etishda Malayziya, BAA, Bahrayn va Saudiya Arabistoni kabi davlatlar tajribasidan foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Dualistik tizim samarali ekanligi ushbu mamlakatlar misolida ma'lum bo'ldi. Bugungi kunda O'zbekistonda ITB orqali moliyalashtirilgan ko'plab loyihalarning mavjud ekanligi islom moliyasini joriy etish uchun asos bo'la oladi. Mamlakatimizda me'yoriy-huquqiy hujjatlar joriy holatini tahlil qilish jarayonida islom moliyasini joriy etish bo'yicha qonunchilikka bir qator o'zgarishlar kiritish lozimligi ma'lum bo'ldi. Bunday muassasalarni muvaffaqiyatli joriy qilish bo'yicha bir qator asoslangan takliflar ishlab chiqilib, ularni bosqichma - bosqich amalga kiritish ko'zlangan maqsadga erishishda muhim hisoblanadi.

Islom moliyasini joriy qilishga davlat rahbari darajasida e'tibor qaratilayotgani mamlakat iqtisodiyoti uchun bunday muassasalarning yangi imkoniyatlarni yaratishi bilan izohlanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar keng ko'lamli investitsiyalar kiritishni taqozo qilayotgani sababli, shunday ochiq va shaffof iqtisodiy yondashuv bilan islom moliyasi muassasalari mamlakat moliya bozorini yangi darajaga ko'tara

oladi. Ta'kidlab o'tilgan xulosalarga tayanib, O'zbekistonda islom moliyasini joriy qilish bo'yicha harakatlar yo'nalishiga mos keladigan ilmiy takliflar ishlab chiqildi.

V. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev, Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi
2. Ahmed, E.-A., Wilson, R. *Islamic Economics: A Short History*. — Leiden: Brill, 2006. — 431 p.
3. Ali, M. *A Framework of Islamic Banking // Directory of Islamic Financial Institutions* / ed. by J.R. Presley. — London: Croom Helm, 1988.
4. Siddiqi, M.I. *Model of an Islamic Bank*. — Lahore: Kazi Publications, 1986.
5. Al-Zuhaili, W. *Financial Transactions in Islamic Jurisprudence*. Vol. 1 / transl. by M.A. El-Gamal. — Beirut: Dar al-Fikr, 2003.
6. Xorun, S. *Islomiy moliya va bank tizimi*. — Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2014.